MAKTAB TA`LIMIGA QABUL QILISHDA O`QUVCHILARNING TAYYORGALIK DARAJASINI OSHIRISH

Ruzmetova Sumbul Bog'bek qizi
Ismoilova Mehriniso Ilyos qizi
Xorazm viloyati Hazorasp tumani 1-son maktab psixologlari

Annotatsiya: O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuklarga erishish extiyojini ondirishga ,shuningdek tengdoshlari orasida uz urniga ega bulishiga imkoniyat ham yaratadi.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, bola, o'quvchi, tarbiyachi, motiv, diqqat, javobgarlik xissi…..

Bolalarning kichik maktab yoshidagi davri 7 yoshidan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o'qishi yillariga to'g'ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik davri tugadi. Maktabga kelish oldidan bola quyidagiga ko'ra o'z hayotini eng muhim davriga ya'ni maktab davriga qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga boshqacha qilib aytganda ta'lim olishga xam jismoniy ham psixologik jihatidan tayyor bo'ladi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida mel yoki plastinkadan narsa yasash ishlarida va eng oddiy ko'rish yasash mashg'ulotlarida yaqqol namayon bo'ladi. Bola o'z diqqatini boshqarishda o'z diqqatini mustaqil tashkil qilishida bir muncha tajriba xosil qilgan bo'ladi. 7 yosh bolaning so'z boyligi ham yetarli darajada boy va mavhum tushunchalar miqdori ancha yuksak bo'ladi. Bola eshitganlarini yetarli darajada keng tushunadi. Mutaxxassislarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha yaxshi tashkil qilingan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantiradi. Ular sodda mashqlar va masalalarni tuza oladigan hamda yecha oladigan bo'ladilar. Ularda burch hissi va javobgarlik hissi endigina namayon bo'la boshlaydi. 7 yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarish tajribasini hammasi maktab ta'limiga tayyorgarligi muhim shartlaridan biri yuqorida aytganlarining hammasi bolaning maktab psixologiyasi jihatidan tayyor ekanligi obyektiv

tamoyillarga maquldir. Boshlang'ich sinflarda pedagog ishlarni tashqil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik fiziologik hususiyatlarini ijtimoiy taraqqiyot darajasini ham hisobga olish lozim. Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizmning tiniqligi o'pkasining hayotiy xajmi ancha tekis va propalsional rivojlanadi.Psixolog L.S.Slavinaning ko'rsatishicha boshlang'ich sinfda bilish faolligi yetarli darajada bo'lmagan bolalar uchrashi mumkin.Bunday bolalar intiluvchan jihatidan normal rivojlangan bo'ladilar. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namayon bo'ladi. Faol fikr qilish ular uchun harakterlidir. Bunday o'quvchilariga o'qituvchida aloxida diqqat bilan qarashi kerak. Ularning fikr qilishi faoliyatiga odatlantirib ularni yutuqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi dastlabki paytlarda o'quv vazifalarini bajarishni o'yin va amaliy faoliyatni bilan bog'lab olib borish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qaxtiiy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlarini, arifmetika, ona-tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta xajmda bilimni ortirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaningsh bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan bilim jarayonlarininng taraqqiyoti, aqliy rivojlanish yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi va nixoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish o'qishga nisbatan maxsuliyatli munosabat o'qishni yuksak omillarini topishi kerak. Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r ehtibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. O'quv faoliyati kichik maktab yeshidagi o'quvchi uchun nafakat bilish jaraenlarining yukori darajada rivojlanishi .balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Shuni

aloxida ta’kidlash lozimki yetakchi bo’lgan o’quv faoliyatidan tashkari boshka faoliyatlar-uyin.mulokot va mehnat faoliyatit ham o’quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta’sir kursatiadi.Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvafakkiyatga erishish motivlari bilan boglik bo’lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O’quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o’qishda ma’lum yutuklarga erishish extiyojini kondirishga ,shuningdek tengdoshlari orasida uz urniga ega bulishiga imkoniyat ham yaratadi.Aynan ana shu urin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o’qish uchun xarakat kilishi mumkin.Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda uzlari erishgan muvaffakkiyatini boshka tengdoshlari muvaffakkiyati bilan solishtiradilar.Ular uchun doimo birinchi bulish nixoyatda muxim .Kichik maktab davrida bolalardagi musobakaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj hisblanib bu motiv ularga kuchli emotsional zurikishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogcha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o’smirlik davrida ham yakkol kuzga tashlanadi.Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xakidaga fikr va baxolariga karab uzlariga uzlari baxo beradilar.O’quvchining uziga uzi beradigan baxosi asosan tugridan tugri o’qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffakiyatlariga boglik.Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda uz uziga beradigan baxolari turlicha –yukori , adekvat,past bulishi mumkin.Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo’lgan ishonuvchanlik, ochiklik, tashki ta’sirlarga beriluvchanlik,itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffakkiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin.Bu davrda muvaffakkiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir katorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi.Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda mehnatsevarlik asosan o’qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o’zi qilayotgan mehnati unga zavq

bergan takdirdagina yuzaga keladi.Bolada mustaqillik xusuiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq.Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor,ochik xususiyatli bo'lsa unda asta sekinlik bilan buysinuvchanlik mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustahkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda quloqsizlik yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taklid qilgan xolda uzlashtiradi Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. 7-11 yoshli davrda bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolani o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulqatvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli rivishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtrishiga, hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulk-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda o'rtoqlar va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuygular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshli davrida bolalarning ko'zga tashlangan xususiyatlari 4 yil davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi hamda o'smirlik davrining boshlariga kelib juda ko'p shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ko'pchilib boalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yosh davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshda bolada idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa

o’qituvchi bilan bo’ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o’rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta’lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg’iz xolda sevimli mashg’ulotlari bilan shug’ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.G’oziyev “Umumiy psixologiya”. Noshir, T.: 2010
2. Г.С. Абрамова “Возрастная психология” Учебное пособие для студентов вузов-МЦ “Изд-во” 2001.- 621с
3. Н.И. Вьюнова “Психологическая готовность ребенка к обучению в школе” Россия М.:2003
4. А.Г.Зикейев. Развитие речи слабослышащих учащихся. -М ., 1976.
5. www.kutubxona.uz sayti